



EVOLUTION OF LEGAL, SOCIAL, AND SECULAR STATE CONCEPTS IN UZBEKISTAN: HISTORICAL-PHILOSOPHICAL ANALYSIS

Gulbahor Orziqulova

Independent Researcher

Renessans Education University

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Legal state, social state, secularism, constitutional reforms, human dignity, New Uzbekistan, civil society, social justice, enlightened Islam, tolerance.

Received: 19.11.25

Accepted: 20.11.25

Published: 21.11.25

Abstract: This study provides a socio-philosophical analysis of the formation and development of legal, social, and secular state-building models in the Republic of Uzbekistan during the years of independence. The aim of the research is to reveal the dialectical interconnection of these three fundamental concepts and their transformation during Constitutional reforms (specifically the 2023 revision). Comparative-historical analysis, hermeneutics, and systemic approaches were utilized as the methodological basis. The results indicate that while “defensive secularism” and “rule of law” focused on state sovereignty and security prevailed from 1991 to 2016, the period from 2017 witnesses the practical application of “social state” and “active civil society” ideas based on the “human dignity” principle. It is concluded that the principle of secularism in Uzbekistan manifests not as a rejection of religion but as an enlightened model ensuring inter-confessional tolerance, while the social state appears as a system focused on developing human capital rather than paternalistic governance.

O‘ZBEKISTONDA HUQUQIY, IJTIMOIIY VA DUNYOVIY DAVLAT KONSEPSIYALARINING EVOLYUTSIYASI: TARIXIY FALSAFIY TAHLIL

Gulbahor Orziqulova

Mustaqil tadqiqotchi

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Huquqiy davlat, ijtimoiy davlat, dunyoviylik, konstitutsiyaviy islohotlar, inson qadri, Yangi O'zbekiston, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy adolat, ma'rifiy islom, tolerantlik.

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot O'zbekiston Respublikasining mustaqillik yillarida huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat qurish modellarining shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qiladi. Tadqiqotning maqsadi – mazkur uchta fundamental tushunchaning o'zaro dialektik bog'liqligi va Konstitutsiyaviy islohotlar (xususan, 2023-yilgi tahrir) jarayonidagi transformatsiyasini ochib berishdir. Metodologik asos sifatida qiyosiy-tarixiy tahlil, ger menevtika va tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, 1991–2016-yillarda davlat suvereniteti va xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan “himoyalovchi dunyoviylik” va “qonun ustuvorligi” ustuvor bo'lgan bo'lsa, 2017-yildan keying davrda “inson qadri” tamoyili asosida “ijtimoiy davlat” va “faol fuqarolik jamiyati” g'oyalarining amaliy tatbig'i kuzatilmoqda. Maqolada xulosa qilinishicha, O'zbekistonda dunyoviylik prinsipi dindan voz kechish emas, balki konfessiyalararo bag'rikenglikni ta'minlovchi ma'rifiy model sifatida, ijtimoiy davlat esa paternalistik boshqaruvdan inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan tizim sifatida namoyon bo'lmoqda.

ЭВОЛЮЦИЯ КОНЦЕПЦИЙ ПРАВОВОГО, СОЦИАЛЬНОГО И СВЕТСКОГО ГОСУДАРСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ: ИСТОРИКО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ

Гульбахор Орзикулова

Независимый исследователь

Университет образования «Ренессанс»

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Правовое государство, социальное государство, светскость, конституционные реформы, человеческое достоинство, Новый Узбекистан, гражданское общество, социальная справедливость, просвещенный ислам, толерантность.

Аннотация: Данное исследование представляет собой социально-философский анализ формирования и развития моделей построения правового, социального и светского государства в Республике Узбекистан в годы независимости. Цель исследования – раскрыть диалектическую взаимосвязь этих трех фундаментальных понятий и их

трансформацию в ходе Конституционных реформ (в частности, редакции 2023 года). В качестве методологической основы использованы сравнительно-исторический анализ, герменевтика и системный подход. Результаты показывают, что если в 1991–2016 годах преобладали «защитный секуляризм» и «верховенство закона», направленные на обеспечение государственного суверенитета и безопасности, то с 2017 года наблюдается практическое применение идей «социального государства» и «активного гражданского общества» на основе принципа «человеческого достоинства». Сделан вывод, что принцип светскости в Узбекистане проявляется не как отказ от религии, а как просвещенная модель, обеспечивающая межконфессиональную толерантность, а социальное государство – как система, направленная на развитие человеческого капитала, а не патерналистское управление.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasining 1991-yil 31-avgustda mustaqillikka erishishi nafaqat siyosiy suverenitetni, balki davlat qurilishi falsafasining tubdan o‘zgarishini ham anglatar edi. Sobiq ittifoq davridagi mafkuraviy yakkahokimlikdan voz kechilib, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyada (1992) «suveren, demokratik respublika» tamoyillari e‘lon qilindi. Biroq, «huquqiy», «ijtimoiy» va «dunyoviy» tushunchalarining mazmun-mohiyati o‘tgan 34 yil davomida statik hodisa bo‘lib qolmay, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va global jarayonlar ta’sirida evolyutsion o‘zgarishlarga yuz tutdi. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, 2023-yil 30-aprelda qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 1-moddasida O‘zbekistonning «suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat» ekanligi imperativ tarzda mustahkamlandi. Ushbu o‘zgarish mazkur tushunchalarning ilmiy-falsafiy talqinini yangi davr talablaridan kelib chiqib qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi.

Mavjud adabiyotlarda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati masalalari asosan yuridik fanlar doirasida o‘rganilgan. Biroq, «ijtimoiy davlat» va «dunyoviy davlat» tushunchalarining O‘zbekiston tarixiy-madaniy sharoitidagi o‘ziga xos sintezi, ularning ijtimoiy-falsafiy genezisi va 2017-yildan keyingi Yangi O‘zbekiston g‘oyasi doirasidagi transformatsiyasi yaxlit tizim sifatida yetarlicha tadqiq etilmagan. Aksariyat ishlarda bu tushunchalar alohida-alohida ko‘rib chiqilgan, vaholanki, ular o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, biri ikkinchisini taqozo etadi.

Ushbu maqolaning maqsadi O'zbekistonda huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat modellarining tarixiy shakllanish bosqichlari va falsafiy mohiyatini ochib berishdan iborat. Buning uchun quyidagi vazifalar belgilandi: Birinchidan, huquqiy davlat qurishda «qonun ustuvorligi»dan «huquq ustuvorligi»ga o'tish jarayonini tahlil qilish. Ikkinchidan, ijtimoiy davlat konsepsiyasining paternalistik yondashuvdan inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan modelga o'zgarishini o'rganish. Uchinchidan, O'zbekistonda dunyoviylik tamoyilining o'ziga xos «ma'rifiy modeli»ni asoslash.

Adabiyotlar sharhi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha ilmiy adabiyotlarni uchta asosiy guruhga ajratish mumkin.

Birinchi guruh: O'zbekiston davlatchiligi asoslari va mustaqillikning dastlabki yillaridagi (1991–2016) huquqiy islohotlarga bag'ishlangan asarlar. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning asarlarida «o'zbek modeli»ning besh tamoyili, xususan, qonun ustuvorligi va kuchli ijtimoiy siyosat g'oyalari ilgari surilgan. Ushbu davr adabiyotlarida davlatning bosh islohotchi sifatidagi roli va barqarorlikni ta'minlash omillari ustuvor o'rganilgan. Yuridik fanlar namoyandalari A.X.Saidov va O.T.Husanovlarning ishlarida Konstitutsiyaviy huquq va davlat qurilishi masalalari tahlil qilingan bo'lib, ularda huquqiy davlatning formal-yuridik jihatlariga urg'u berilgan.

Ikkinchi guruh: 2017-yildan keyingi davrdagi islohotlar, xususan, «Harakatlar strategiyasi» va «Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi» doirasidagi o'zgarishlarni tahlil qiluvchi tadqiqotlar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning ma'ruza va asarlarida «Inson qadri uchun» g'oyasi markaziy o'rin tutadi. Bu davr tadqiqotchilari (J.Y.Yaxshilikov, N.E.Muhammadiyev, U.R.Ravshanov, Sh.U.Ne'matov va boshqalar) ijtimoiy davlat tushunchasini kambag'allikni qisqartirish, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish prizmasi orqali talqin qiladilar.

Uchinchii guruh: G'arb va Sharq falsafasida huquqiy va ijtimoiy davlat nazariyalari. Jon Lokk, Sh.Monteskye, I.Kantning huquqiy davlat haqidagi klassik qarashlari hamda Lorens fon Shtaynning ijtimoiy davlat nazariyasi O'zbekiston tajribasi bilan qiyosiy o'rganilishi lozim bo'lgan nazariy asoslardir. Biroq, mavjud mahalliy adabiyotlarda G'arb modellari ko'pincha to'g'ridan-to'g'ri ko'chiriladi yoki tanqid qilinadi, milliy mentallik (masalan, mahalla instituti, jamoaviylik qadriyatlari) bilan sintezi chuqur falsafiy tahlil qilinmagan.

Mazkur tadqiqot adabiyotlardagi ushbu bo'shliqni to'ldirishga, ya'ni huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat tushunchalarini alohida emas, balki yaxlit ijtimoiy-falsafiy tizim sifatida o'rganishga qaratilgan.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqot jarayonida fanlararo yondashuvdan foydalanildi. Tarixiy-qiyosiy metod vositasida O'zbekistonning 1991–2016 va 2017–2025-yillardagi davlat qurilishi

amaliyoti qiyosiy tahlil qilindi. Hujjatlar tahlili metodi asosida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (1992, 2023), Rivojlanish strategiyalari, Prezident farmonlari va qarorlari birlamchi manba sifatida o'rganildi. Germenevtik tahlil yordamida qonunchilik matnlaridagi «dunyoviylik» va «ijtimoiy adolat» tushunchalarining botiniy ma'nolari va ijtimoiy-siyosiy konteksti sharhlandi. Tizimli tahlil metodini qo'llagan holda huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat tushunchalari o'zaro bog'liq elementlardan iborat yaxlit tizim sifatida ko'rib chiqildi.

Natijalar. Tadqiqot natijasida O'zbekistonda huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat tushunchalarining evolyutsiyasida quyidagi asosiy bosqichlar va xususiyatlar aniqlandi. 1991–2016-yillarda O'zbekistonda «huquqiy davlat» tushunchasi asosan «qonun ustuvorligi» shaklida talqin etilgan. Bunda davlat organlarining qarorlari qonunlarga mos bo'lishi talab etilgan bo'lsa-da, qonunlarning o'zi inson huquqlariga qanchalik mosligi masalasi ikkinchi darajali edi. 2017-yildan boshlab, sud-huquq tizimidagi islohotlar, «propiska» tizimining liberallashtirilishi, majburiy mehnatga barham berilishi bilan «huquq ustuvorligi» paradigmasiga o'tish boshlandi. 2023-yilgi Konstitutsiyada «Miranda qoidalar» va «Xabeas korpus» institutining kengaytirilishi bu jarayonning huquqiy jihatdan mustahkamlanganligini ko'rsatadi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida ijtimoiy siyosat aholining zaif qatlamlarini himoya qilishga qaratilgan paternalistik xarakterda edi. Bu o'tish davri qiyinchiliklarini yumshatish uchun zarur edi. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining tashkil etilishi, «Ijtimoiy himoya yagona reyestri», O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligining joriy etilishi va ta'limga (xususan, maktabgacha ta'lim va oliy ta'lim qamrovi) investitsiyalarning ortishi ijtimoiy davlatning yangi modelini shakllantirdi. Bu modelda davlat shunchaki moddiy yordam beruvchi emas, balki fuqaroga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun imkoniyat yaratuvchi subyekt sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekistondagi dunyoviylik (sekulyarizm) modeli Fransiya (laïcité) yoki AQSh modellaridan farq qiladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda dunyoviylik dindan butunlay ajralish yoki dinga befarqlikni anglatmaydi. Aksincha, davlat diniy qadriyatlarni milliy o'zlikning ajralmas qismi sifatida e'tirof etadi, diniy ta'lim va ziyorat turizmini qo'llab-quvvatlaydi, biroq siyosat va dinni qat'iy ajratadi. Bu «ma'rifiy dunyoviylik» bo'lib, u radikalizmga qarshi kurashda ma'rifiy islom g'oyalariga tayanadi.

Muhokama. Tadqiqot davomida olingan natijalar O'zbekistonning davlat qurilishi modelida fundamental o'zgarishlar sodir bo'lganini ko'rsatadi. Ushbu qismda huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat tamoyillarining o'zaro dialektik aloqadorligi, ularning jamiyat hayotidagi ontologik maqomi va yangi konstitutsiyaviy makondagi o'rni tahlil qilinadi.

O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatadiki, «huquqiy», «ijtimoiy» va «dunyoviy» davlat tushunchalari alohida-alohida mavjud bo'luvchi fenomenlar emas, balki bir-birini taqozo etuvchi yaxlit siyosiy-falsafiy tizimdir. Huquqiy davlat jamiyatdagi munosabatlarning shakli va tartibini (protsessual adolatni) belgilab bersa, ijtimoiy davlat ushbu shaklning mazmunini (taqsimlash adolatini) tashkil etadi. Dunyoviylik tamoyili esa mazkur jarayonlarning g'oyaviy neytralligini va ilmiy-aqliy asosga qurilishini kafolatlaydi. Agar davlat faqat «huquqiy» bo'lib, «ijtimoiy» bo'lmasa, bu jamiyatda tabaqalanishning kuchayishiga va ijtimoiy keskinlikka olib kelishi mumkin. Aksincha, faqat «ijtimoiy» bo'lib, qat'iy «huquqiy» mexanizmlarga ega bo'lmasa, bu boqimandalik kayfiyati va iqtisodiy samarasizlikka sabab bo'ladi. Yangi O'zbekistondagi islohotlarning muvaffaqiyati aynan ushbu muvozanatni topishga qaratilganligidadir.

Tadqiqot natijalari ijtimoiy davlat haqidagi tasavvurlarning jiddiy transformatsiyasini ko'rsatadi. Mustaqillikning dastlabki yillarida davlatning ijtimoiy funksiyasi asosan aholining zaif qatlamlarini to'g'ridan-to'g'ri moddiy qo'llab-quvvatlashdan iborat edi. Yangi O'zbekiston sharoitida esa ijtimoiy davlatning falsafasi o'zgardi. Endilikda davlat moddiy yordam tarqatuvchi subyekt emas, balki fuqarolarning o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun zarur shart-sharoitlarni (ta'lim, sog'liqni saqlash, infratuzilma) yaratuvchi sifatida namoyon bo'lmoqda. Ijtimoiy sohaga yo'naltirilayotgan mablag'lar (davlat byudjetining 50 foizdan ortig'i) «chiqim» sifatida emas, balki kelajakdagi iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi «strategik sarmoya» sifatida baholanmoqda. Bu yondashuv Lorens fon Shtaynning «ijtimoiy davlat barcha sinflarning huquqiy tengligini ta'minlash orqali ijtimoiy tinchlikka erishadi» degan klassik g'oyasining zamonaviy interpretatsiyasidir.

O'zbekiston modelida dunyoviylik (sekulyarizm) tamoyili jamiyatni modernizatsiya qilishning asosiy sharti sifatida talqin qilinadi. Dunyoviylik – bu vijdon erkinligini ta'minlash bilan birga, davlat boshqaruvi va ta'lim tizimining diniy dogmalardan xoli bo'lishini, qarorlar qabul qilishda ilmiy va ratsional yondashuv ustuvorligini anglatadi. Bu mamlakatning texnologik va intellektual taraqqiyoti uchun hayotiy zaruratdir. Dunyoviy davlat turli konfessiya va dunyoqarashga ega bo'lgan fuqarolarning tinch-totuv yashashi uchun yagona neytral platformadir. O'zbekiston sharoitida bu tamoyil ko'p millatli va ko'p konfessiyali jamiyatning birligini saqlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Davlat hech qaysi dinni ustun qo'ymaydi va ayni paytda barcha dinlarga hurmat bilan munosabatda bo'ladi, bu esa ijtimoiy adolatning ma'naviy ko'rinishidir.

G'arb nazariyalarida «Fuqarolik jamiyati» va «Davlat» ko'pincha bir-biriga qarshi turuvchi qutblar sifatida ko'riladi. O'zbekiston tajribasidagi o'ziga xoslik – bu «Mahalla» institutining konstitutsiyaviy maqomga ega bo'lishidir. Mahalla davlat boshqaruvi organlari va oddiy fuqaro o'rtasidagi masofani qisqartiruvchi, ijtimoiy muammolarni «pastdan yuqoriga» yetkazuvchi va

joylarda hal qiluvchi noyob mexanizmdir. Ijtimoiy davlat funksiyalarining bir qismi (masalan, ehtiyojmandlarni aniqlash, ijtimoiy yordam ko'rsatish) mahalla tizimiga o'tkazilishi byurokraziyani kamaytiradi va manzilli yordamni ta'minlaydi. Bu holat davlatning jamiyat hayotiga haddan tashqari aralashuvini cheklab, haqiqiy fuqarolik jamiyati rivojlanishiga xizmat qiladi.

Xulosa. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda davlat qurilishi murakkab evolyutsion yo'lni bosib o'tdi. Mazkur tadqiqot shuni ko'rsatadiki, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat tushunchalari o'zaro ajralmas triadani tashkil etadi: huquqiy davlat – bu tizimning karkasi bo'lib, barcha jarayonlarning qonuniy asosini ta'minlaydi; ijtimoiy davlat – bu tizimning mazmuni bo'lib, islohotlarning pirovard maqsadi inson farovonligi ekanligini anglatadi; dunyoviy davlat esa bu tizimning barqarorlik kafolati bo'lib, turli e'tiqod vakillarining tinch-totuv yashashini va jamiyatning ilmiy-ma'rifiy rivojlanishini ta'minlaydi.

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi doirasida ushbu tushunchalar yangi sifat bosqichiga ko'tarildi. Eng muhim o'zgarish – bu «Davlat – jamiyat – inson» paradigmasidan «Inson – jamiyat – davlat» paradigmasiga o'tishdir. Kelajakda ijtimoiy davlat majburiyatlarini to'liq bajarish iqtisodiy barqarorlikka bog'liq bo'lib, bu yo'nalishda korrupsiyaga qarshi kurash va iqtisodiy liberallashtirish jadal sur'atlarda davom ettirilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Расмий нашр. – Тошкент: O'zbekiston, 2023. – 240 б.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/-5841063>.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: O'zbekiston, 2022. – 416 b.
4. Мирзиёев Ш.М. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон. – Toshkent: Ўзбекистон, 2024.
5. Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат мафкура. Ж. 1. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. – 364 б.
6. 2017–2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини «Халқ билан мулоқот ва инсон манфаатлари йили»да амалга оширишга оид Давлат дастурини ўрганиш бўйича илмий-услубий рисола. – Тошкент: Маънавият, 2017. – 244 бет.
7. Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq. Darslik. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2022. – 400 b.

8. Мирзаев М. Жамиятни ҳаракатга келтирувчи куч. – Тошкент: Фан, 2007. – 140 бет.
9. Мусаев Ф.А. Демократик давлат қуришнинг фалсафий-ҳуқуқий асослари. – Т.: Ўзбекистон, 2007. – 272 б.
10. Назаров Қ. Фалсафа асослари. – Тошкент: Ўзбекистон фаласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2012. – 808 б.
11. Равшанов У.Р. Ўзбекистон ижтимоий-сиёсий ҳаётида миллий ғоянинг ўрни ва уни ривожлантириш технологиялари. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2021. – 46 б.
12. Саидов А.Х. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси: Мустақил ва демократик тараққиётнинг ҳуқуқий асоси. – Тошкент: O‘zbekiston, 2012. – 72 б.
13. Яхшиликов Ж.Я., Муҳаммадиев Н.Э. Миллий ғоя – тараққиёт стратегияси. – Тошкент: Фан, 2017. – 424 б.